

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti assistent o'qituvchisi E-mail: meylikovf@gmail.com ORCID:

0009-0005-6041-5755

Jo'rayev Sayhun Orif o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati, uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va fiskal ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotda daromad solig'ining iqtisodiy mazmuni, byudjet tushumlariga ta'siri hamda rasmiy bandlik va aholi daromadlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritildi. Olingan natijalar mazkur soliqning byudjet barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy shaffoflikni kuchaytirish va daromadlarni qayta taqsimlashdagi muhim vosita ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxs, daromad solig'i, davlat byudjeti, fiskal siyosat, soliq bazasi, bandlik, daromad, iqtisodiy barqarorlik.

Annotation: This article analyzes the economic essence of personal income tax, its role in forming state budget revenues, and its fiscal significance. The study examines the economic content of personal income tax, its impact on budget revenues, and its relationship with formal employment and household income. The findings show that this tax serves as an important instrument for ensuring budget stability, increasing economic transparency, and redistributing income within the national economy.

Keywords: individual, personal income tax, state budget, fiscal policy, tax base, employment, income, economic stability.

Аннотация: В данной статье проанализированы экономическая сущность налога на доходы физических лиц, его роль в формировании доходов государственного бюджета и фискальное значение. В исследовании раскрыты экономическое содержание данного налога, его влияние на бюджетные поступления, а также взаимосвязь с официальной занятостью и доходами населения. Полученные результаты показывают, что данный налог является важным инструментом обеспечения устойчивости бюджета, повышения экономической прозрачности и перераспределения доходов.

Ключевые слова: физическое лицо, подоходный налог, государственный бюджет, фискальная политика, налоговая база, занятость, доход, экономическая устойчивость.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri samarali va izchil tashkil etilgan soliq tizimi hisoblanadi. Davlat o'z zimmasiga yuklatilgan

ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional vazifalarni bajarishi uchun barqaror daromad manbalariga tayanadi. Ana shunday manbalar orasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i alohida o'rin egallaydi. Mazkur soliq aholining iqtisodiy faolligi natijasida vujudga kelgan daromadlarning bir qismini davlat byudjetiga jalb etish orqali bir tomondan fiskal vazifani bajaradi, ikkinchi tomondan esa daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u mehnat faoliyati, mulkiy operatsiyalar, xizmat ko'rsatish, investitsion faoliyat va boshqa qonuniy manbalardan olingan daromadlarning muayyan qismini davlat ixtiyoriga o'tkazish orqali milliy daromadni qayta taqsimlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu soliqning amal qilishi davlat bilan fuqaro o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning bevosita shaklidir. Shu bois mazkur soliq nafaqat byudjetni to'ldirish vositasi, balki iqtisodiy tartibga solish, aholi daromadlarini hisobga olish va iqtisodiy shaffoflikni oshirishning muhim instituti sifatida ham baholanadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibi tobora murakkablashib bormoqda. Ish haqi, dividend, foiz, ijara haqi, mustaqil kasbiy faoliyatdan olinadigan tushumlar hamda raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq yangi daromad shakllarining paydo bo'lishi daromad solig'ining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etishni talab etmoqda. Ayniqsa, daromad manbalarining diversifikatsiyalashuvi soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish va byudjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mazmuni va uning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mamlakat soliq tizimining asosiy soliqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [1]. Mazkur Kodeksning 364-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi norezident jismoniy shaxslar ushbu soliqning to'lovchilari hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyektini sifatida belgilangan [3]. Ushbu me'yorlar daromad solig'ining huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning byudjetga jalb etilish mexanizmini ham aniq belgilab beradi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyati ayniqsa katta. Chunki ushbu soliq muntazam xarakterga ega bo'lib, aholi bandligi darajasi, ish haqi fondining o'sishi, tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy o'sish bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada davlat byudjetiga kelib tushadigan mazkur soliq tushumlari iqtisodiy kon'yunkturadagi o'zgarishlarga tezkor javob beruvchi muhim fiskal indikator vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, daromad solig'i nafaqat davlat xarajatlarini moliyalashtirish manbai, balki iqtisodiyotning real sektoridagi jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkich sifatida ham namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligi shundaki, bugungi kunda byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash, soliq yukining adolatlilikini saqlash hamda

yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish masalalari bevosita jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining samaradorligi bilan bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolaning asosiy maqsadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan yoritish, uning O'zbekiston Respublikasi byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini va amaliy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyatini chuqur anglash va uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini baholashda so'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

“Daromad solig'i tushumlarining o'sishi aholining rasmiy bandligi va mehnatga haq to'lash fondining kengayishi bilan uzviy bog'liq” deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikr mazkur soliqning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Muallifning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, daromad solig'i tushumlarining ortishi faqat soliq stavkalari bilan emas, balki iqtisodiyotdagi real daromadlar hajmining ko'payishi bilan belgilanadi. Shu sababli jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i mamlakat iqtisodiy faolligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida ham qaralishi mumkin. Ayniqsa, rasmiy bandlik oshgan sari byudjet daromadlarining barqarorligi mustahkamlanadi. [2]

“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjetga muntazam tushib turadigan va iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liq bo'lgan barqaror fiskal manbadir” degan xulosaga keladi [3]. Mazkur yondashuv daromad solig'ining fiskal ahamiyatini yanada aniqroq namoyon etadi. Haqiqatan ham, mazkur soliqning asosiy ustunligi uning davriy va muntazam xarakterga egaligidadir. Ish haqi, xizmat haqi, mulkiy daromad va boshqa manbalardan undiriladigan ushbu soliq davlat byudjetining doimiy daromad bazasini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, fikr daromad solig'ining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham davlat moliyaviy barqarorligidagi o'rnini ochib beradi. [4]

“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari aholining daromadlarini legallashtirish darajasi ortgan sari sezilarli ravishda ko'payadi” deb qayd etadi [5]. Bu fikr soliq ma'murchiligini takomillashtirishning iqtisodiy samarasini ko'rsatadi. Chunki yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishi, ish haqi fondining rasmiylashtirilishi va elektron hisob-kitob tizimlarining joriy etilishi daromad solig'i bazasini kengaytiradi. Demak, mazkur soliq tushumlarining o'sishi faqat iqtisodiy o'sish natijasi emas, balki ma'muriy boshqaruv sifatining yaxshilanishi bilan ham chambarchas bog'liq. Bu esa byudjet daromadlarining barqaror manbalarini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. [6]

“Soliq imtiyozlari aholining muayyan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, daromadlarni adolatli taqsimlashga xizmat qiladi” degan fikrni ilgari suradi [7]. Ushbu ilmiy qarash daromad solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat fiskal funktsiya bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy himoya, daromadlar tafovutini yumshatish va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ayrim daromad turlariga nisbatan imtiyozlar va

soliqdan ozod etish normalarining belgilanishi ham aynan shu iqtisodiy maqsadga xizmat qiladi [8].

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda baholash uchun bir qator umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishga yo'naltirildi.

Avvalo, tahlil va sintez usuli yordamida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining nazariy asoslari, iqtisodiy mazmuni, fiskal funksiyasi hamda byudjet tizimidagi o'rni alohida tarkibiy qismlarga ajratilib o'rganildi. Keyinchalik ushbu tarkibiy elementlar o'zaro bog'langan holda umumlashtirilib, mazkur soliqning davlat moliyasidagi yaxlit iqtisodiy ahamiyati ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi, uning boshqa soliqlar bilan nisbatdagi o'rni hamda turli davrlardagi dinamik o'zgarishlari taqqoslab baholandi. Qiyosiy yondashuv daromad solig'ining fiskal barqarorlikka ta'sirini aniqroq ko'rsatishga imkon berdi.

Statistik kuzatish va guruhlash usuli tadqiqotning muhim metodlaridan biri sifatida xizmat qildi. Mazkur usul asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari, aholi daromadlari, ish haqi fondi hamda rasmiy bandlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni tizimlashtirish natijasida daromad solig'i tushumlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi.

Natija

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda barqaror va muntazam tushum manbalaridan biri hisoblanadi. Mazkur soliqning iqtisodiy mazmuni aholi tomonidan yaratilgan daromadning ma'lum qismini davlat ixtiyoriga yo'naltirish orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, daromad solig'i nafaqat fiskal ahamiyatga ega, balki aholi bandligi, ish haqi fondi va rasmiy iqtisodiy faoliyat hajmidagi o'zgarishlarni ifodalovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi soliq tizimiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy stavkasi 12 foiz etib belgilangan. Mazkur stavkaning nisbatan barqarorligi bir tomondan soliq yukining oldindan prognoz qilinishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan byudjet tushumlarining uzluksiz shakllanishini ta'minlaydi. Soliq stavkasining yagona ko'rinishda qo'llanilishi soliq hisob-kitoblarini soddalashtirib, daromadlarni rasmiylashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, agar bir xodimning oylik ish haqi 5 000 000 so'mni tashkil etsa, amaldagi stavka asosida undan 600 000 so'm miqdorida daromad solig'i ushlab qolinadi. Bir yil davomida bitta xodim hisobidan davlat byudjetiga 7 200 000 so'm daromad solig'i tushadi. Agar korxonada 100 nafar xodim faoliyat yuritsa va ularning o'rtacha ish haqi shu miqdorda bo'lsa, yil yakunida faqat bitta korxonada hisobidan byudjetga 720 000

000 so'm daromad solig'i kelib tushadi. Bu oddiy hisob-kitobning o'zi ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining fiskal salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

2025-yilning birinchi yarmida O'zbekiston davlat byudjetiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 19,9 trillion so'm tushum kelib tushgan. 2024-yilning shu davrida ushbu ko'rsatkich 16,9 trillion so'mni tashkil etgan. Natijada bir yil ichida daromad solig'i tushumlari 3 trillion so'mga, ya'ni qariyb 17,8 foizga oshgan. Mazkur o'sish aholining rasmiy daromadlari kengayayotgani, mehnat bozoridagi legallashuv jarayonlari kuchayayotgani va soliq ma'murchiligining takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida davlat byudjetining jami tushumlari 144,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan 19,9 trillion so'mi aynan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hissasiga to'g'ri kelgan. Bu esa umumiy byudjet tushumlarining qariyb 13,8 foizi mazkur soliq orqali shakllanganini anglatadi. Ushbu ulush daromad solig'ining byudjet tizimidagi real o'rnini aniq ko'rsatadi hamda uni eng muhim fiskal manbalardan biri sifatida tavsiflaydi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim holat aniqlandiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining o'sishi iqtisodiy faollikning rasmiy sektorga o'tishi bilan bevosita bog'liq. Aholi bandligi oshgan sari, ish haqi fondi kengaygan sari va daromadlarning yashirin shakllari qisqargan sari mazkur soliq bo'yicha tushumlar ham ortib boradi. Shu sababli jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirish bilan birga iqtisodiyotning shaffofligini kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida ham baholanadi.

Takliflar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi samaradorligini oshirish uchun, avvalo, soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun norasmiy bandlikni qisqartirish, mehnat munosabatlarini to'liq rasmiylashtirish hamda ish haqi to'lovlarining yashirin shakllariga qarshi ta'sirchan nazorat mexanizmlarini qo'llash zarur.

Ikkinchidan, kam daromadli qatlamlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga yuqori daromadli guruhlar bo'yicha soliqqa tortishning adolat tamoyillarini yanada kuchaytirish zarur. Bu daromadlar o'rtasidagi tafovutni yumshatishga va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, soliq to'lovchilarning huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarda soliqlarni to'lash madaniyatining shakllanishi daromad solig'i tushumlarining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining fiskal salohiyatini yanada oshiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim va barqaror manba ekanini ko'rsatdi. Mazkur soliq aholining rasmiy daromadlari, bandlik darajasi va iqtisodiy faollik bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Tahlillar daromad solig'i tushumlarining o'sishi fiskal barqarorlikni mustahkamlash bilan birga iqtisodiyotning shaffofligini ham kuchaytirishini tasdiqladi. Shuningdek, ushbu soliq daromadlarni qayta taqsimlash orqali

ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu sababli jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini takomillashtirish byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qiyosov Sh., Moliya va bank ishi, "Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimida imtiyozlar", №4, 88–94-betlar, 2023-yil.
2. Hakimov F., Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining O'zbekiston Respublikasi byudjetidagi salmog'i", №3, 13–19-betlar, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Soliq tizimi tahliliy sharh, "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i statistikasi", №1, 45–52-betlar, 2024-yil.
4. Tojiboyeva O., Modern Science and Research, "O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjetdagi salmog'i", №1, 574–583-betlar, 2025-yil.
5. Karimov A., Iqtisodiy rivojlanish va prognozlash, "Soliq bazasini kengaytirish masalalari", №2, 110–116-betlar, 2022-yil.
6. Yadgarov S., Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, "Daromad solig'i tushumlarining shakllanish omillari", №2, 201–207-betlar, 2024-yil.
7. Ismailov B., Fiscal Studies of Uzbekistan, "Income tax and budget stability in Uzbekistan", №3, 55–62-betlar, 2024-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Soliq kodeksi, "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi moddalar", 364–386-moddalar, 2019-yil.
9. Meylikov F., Valiev O., The role of loans in the development of the regional economy. Innovation Science and Technology, ISSUE 12, December, 2025
10. <https://lex.uz>